



**BADIIY MATNDA COLORONIMLARNING SEMANTIK VA
STILISTIK FUNKSIYALARI**

D.M.Xayitova

FarDU tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179656>

***Annotatsiya:** Mazkur maqola badiiy matnlarda qo'llangan coloronimlar (rang nomlari) ning semantik va stilistik funksiyalarini o'rganadi.. Coloronimlar kontekstda o'z ma'nolarini boyitish, yangi ekspressiv va obrazli ma'nolar hosil qilish imkonini beradi. Badiiy diskursdagi, coloronimlarning qanchalik keng qo'llanilishi va ularning o'quvchiga ta'sir etish mexanizmlari, shuningdek, ranglarning madaniy va ijtimoiy omillarga bog'liqligi tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** coloronimlar, rang nomlari, badiiy matn, semantika, stilistik xususiyat, tilning ifoda imkoniyatlari, majoziy ma'no, antropotsentrik yondashuv, kognitiv yondashuv, madaniy kontekst.*

Jahon tilshunosligida dunyoni anglashda hissiy-majoziy shaklning ustuvorligi va rangning inson hissiy holatiga ta'sir qilish qobiliyati tufayli u madaniyatning doimiy belgisi, eng qadimgi semiotik tizim va tasvirning muhim qismi sifatida tadqiqotchilarni qiziqtirib keladi. Negaki, ranglar o'zida olam haqida katta miqdordagi axborotni jamlaydi. Rang inson uchun jamiyatning baholari, me'yorlari va munosabatlarini ifodalovchi axloqiy va estetik kategoriya hamdir. Rang nominativlari paydo bo'lishining qadimiyligi, ko'p tillarda bunday atamalarning rivojlangan tizimi mavjudligi va ularning semantik tuzilishi bilan bog'liq murakkablik ushbu atamalarning inson kognitiv faoliyatidagi muhim rolini ko'rsatadi. Ranglarning leksik tizimi tilshunoslar tomonidan lingvistik, psixolingvistik, madaniy va antropotsentrik aspektlarda o'rganib kelingan. Buning natijasida, bir tomondan, ushbu fragmentga semantik transformatsiya nuqtayi nazaridan eng faol tizim sifatida qarash shakllandi, ikkinchi tomondan esa, milliy-madaniy dunyoqarashning o'ziga xos belgilarini aniq aks ettiruvchi tizim sifatida alohida ahamiyat kasb etdi.

Ma'lumki, badiiy matn o'zida cheklangan makonda me'yoriy lingvistik ifoda imkoniyatlaridan chetga chiqadigan katta miqdordagi ma'lumotlarni jamlaydi. Tilning ifodali vositalari ko'p qirrali va ko'p qatlamli bo'lib, ularning asl ma'nolari asosida yangi ma'nolar shakllantiriladi, muallifning g'oyaviy-badiiy niyatlari to'laqonli ochilib, uni o'quvchiga yetkazish imkoni yaratiladi. Zamonaviy til fanida badiiy matnni o'rganishga turlicha yondashuvlarni ko'rib chiqqan L.I.Komarova bu boradagi antropotsentrik, kognitiv, intertekstual va madaniy yo'nalishlarni yetakchi



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

yo'nalishlar sifatida belgilaydi [3;102] Shu o'rinda ularning qisqacha tahliliga to'xtalib o'tamiz:

- antropotsentrik yondashuv muallif tomonidan yaratilgan matnning o'quvchi tomonidan idrok etilishi va unga ta'sir etish bilan bog'liq psixolingvistik, pragmatik va kommunikativ jihatlarni o'z ichiga oladi (L.S.Vigotskiy, T.M.Dridze, A.A.Leontyev, N.I.Jinkin, I.Ya.Zimnyaya, A.M.Shaxnarovich);

- kognitiv yondashuvda adabiy matn yozuvchining tashqi olamni idrok etishi va bilishini olamning individual mualliflik manzarasi shaklida ifodalovchi murakkab ramziy tuzilma sifatida konsepsiyalaydi (T. van Deyk, Y.N.Karaulov, E.S.Kubryakova, B. A.Serebryannikov va boshqalar);

- intertekstuallik har qanday matnning barcha darajadagi boshqa matnlar bilan va bilvosita madaniy belgilar orqali, atrofdagi dunyo hodisalari bilan fundamental aloqasi haqidagi tezisga asoslangan yondashuvdir (Y.Kristeva, R. Barthes, J Genette, Yu.M.Lotman, Yu.P.Chernyavskaya va boshqalar);

- madaniy yondashuv esa badiiy matnni madaniyat artefakti sifatida tushunishni, har qanday madaniyat vakillarining ruhiy xususiyatlarini ifodalashning samarali usulini o'z ichiga oladi (M.M.Baxtin, D.S.Lixachev, B.V.Vohrisheva, E.E.Brazovskaya, E.Yu.Fortunatova va boshqalar).

Badiiy asarda qo'llangan coloronimlarning rolini tushunish yuqoridagi barcha yo'nalishlarni hisobga olishni nazarda tutadi, chunki shaxsni tushunmay turib, yozuvchi va uning qahramonlari, ijodkorning tashqi dunyoni majoziy aks ettirish usul va imkoniyatlarini o'rganish, uni ma'lum bir milliy madaniyat bilan bog'lash va asarlar yaratilgan tarixiy davrni tahlil qilishning imkoni yo'q.

V.Shekspir asarlarida ranglar tizimining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan ingliz olimi A.M.Janziz [5;38] bu tildagi 7 ta asosiy ranglar – white, black, red, green, yellow, blue and brown (oq, qora, qizil, yashil, sariq, ko'k va jigarrang) asosida hosil qilingan lug'aviy birliklarni tahlil qiladi. Masalan, muallif tomonidan turli guruhlariga taqsimlangan *qora/black* komponentli nominativlar (202 ta) juda ko'p bo'lib, ular tun, kiyim-kechak, o'lim va dafn marosimi tavsifi, tana a'zolari, yovuz ruhlari, ofatlar; qora va boshqa ranglar esa siyoh va yozuv, hissiy holatlar asosida izohlangan. Mazkur tadqiqotda rang ifodalaridan eng kammahsuli jigarrang bo'lib, uning soch, teri rangi, oziq-ovqat va ichimliklar nomlarida, xullas, xosrang va boshqa rang guruhlariga tegishli 25 xil nominativga ega ekanligi qayd etiladi. Ingliz badiiy matnlarida qo'llangan rang nomlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan tilshunos olimlar rang lug'atiga sifatdoshlar ustunligini qayd etadilar (o'zbek tilida



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

esa birlamchi rang nominativlarida sifatlar, ikkilamchi rang nominativlarida otlar faolligi kuzatiladi).

Badiiy matn leksik tarkibining bir qismi sifatida ranglarda ularning estetik, hissiy-ekspressiv va badiiy-vizual imkoniyatlari yuzaga chiqadi. Yu.V.Dyupinning fikricha [2;44], rang ifodalovchilarning ma'nolari kontekstda kengayadi, ular metaforalar, qiyoslar va boshqa tasvir usullarining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ana shu tariqa rang nomlari o'z semantikasini muayyan kontekst va ramziylikda kengaytirilgan va ko'p qirrali birliklardir.

Badiiy asarda muallifning rangdan foydalanishi ko'pincha uning semantikasini sifat jihatidan siljishiga olib keladi, buning natijasida rang ma'noning hissiy-baholovchi komponenti sifatida ular bilan bog'liq mavhumlik hamda subyektivlik aktuallashadi. Yu.A.Nelzinaning ta'kidlashicha, "rang va uning komponentlari o'quvchining rangni ijodiy idrok etishini ta'minlaydi va rang belgisining immanent hamda subyektiv xususiyatini belgilaydi" [4;109].

Rang komponentli ingliz frazeologik birliklarining grammatik modeliga ko'ra, rang birliklari substantiv, verbal, sifat-dosh, ergash gap kesimi va modal ma'noli frazeologik birliklar bilan ifodalanadi. T.R.Anikeyeva [1;93] tomonidan olib borilgan tadqiqot ingliz tilidagi (Amerika varianti) rang ifodalovchi sifatlar bilan jargon nominatsiyalarni tahlil qilishga bag'ishlangan (ular ko'pincha zamonaviy amerikalik mualliflarning badiiy asarlarida uchraydi). Muallif ushbu sifatlar guruhi ona tilida so'zlashuvchilar uchun majoziy, hissiy, istehzoli, baholovchi nominatsiyalarni yaratish jarayonida alohida ahamiyatga ega, degan xulosaga keladi.

Badiiy matnda qo'llanilgan mazkur nominativlarda, ya'ni ta'riflangan leksik birliklarda rangning an'anaviy ramziyligi odatda saqlanib qoladi, ayrim ranglar ba'zi tuslar bilan to'ldiriladi, ba'zan o'ziga xos yangi ranglar ifodasi ham yaratilishi mumkin. Rang komponentini turli so'zlar bilan qo'shib qo'llashning o'ziga xosligi ko'pincha ijtimoiy-tarixiy va madaniy omillar bilan belgilanadi, bu ham rangning qo'shimcha semantik imkoniyatlarini faollashtiradi, uning tarkibli imkoniyatlarini kengaytiradi va badiiy matnda hissiy fon yaratishda qo'shimcha ifoda imkoniyatlarini yaratishga xizmat qiladi.

Ranglardagi ramziylik tilda ko'chimlarning o'zlashtirilganlik darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Ingliz tilidagi asarlarda qo'llangan ko'chimlarning asosiy qismi ta'sirchan va o'ziga xos hamda yangi ifoda ham bo'lishi mumkin, masalan, zanglagan, qo'ng'iroq qizil sochli (kulgili darajadagi siyrak qizil sochli) kabi. Komponent tahlilga ko'ra, ranglar bizga ko'chimlarning tarkibini aniqlash imkonini beradi. Rang asosidagi ko'chimlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ular asosan ikki qismli



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

tuzilishga ega bo'lib, bu rangning asosiy nominatsiyasiga yangi ma'nolar qo'shish imkonini beradi. Masalan:

- kislotasimon-yashil;
- bronza erkaklar (bronza bilan qoplangan, bronza tanli odamlar);
- zanjabil sochlar (qizil tUSDagi yorqin sochlar).

Badiiy asarlarda uch komponentli rang nominativlari kamroq uchraydi: *a rich chocolate black background / насыщенный шоколадно-черный фон / quruq shokoladsimon qora tus* kabi. Ranglar ifoda shakli va tuzilishiga ko'ra, so'z, ibora yoki murakkab sintaktik tuzilma darajasida tavsiflanadi. Bunday rang nominativlari orasida birikmali ranglar ko'p uchraydi: прилагательное + существительное (sifat + ot ko'rinishidagi). Masalan:

- the clutching silver hand / судорожно сжатая серебристая рука / qattiq siqilgan kumush qo'l;

- greenish winds / зеленые ветра / yashil shabboda;
- greying weight / серая тяжесть / kulrang og'irlik/zalvor;
- a yellow smile / желтозубая улыбка / sariq tish tabassumi va h.

Stilistik mezonga ko'ra, ranglarning turli nutq uslublariga – badiiy, rasmiy, publitsistik, ilmiy, so'zlashuv uslubiga tegishliligi belgilanadi. Zamonaviy ingliz yozuvchilari asarlarida rang nomlari ko'chim ifodalovchi vositalarning bir qismi sifatida keng qo'llaniladi. Bunday qo'llanishda ekspressiv vositalarning ajralmas qismi bo'lgan rang leksikasi ekspressivlik va ramziylik bilan to'yintiriladi, yangi ma'no va tUSlarga ega bo'ladi; ular vositasida badiiy, obrazli, intellektual va hissiy jihatdan murakkab bo'lgan diktemalar hosil qilinadi. Ranglarni belgilashga asar konteksti sezilarli darajada ta'sir qiladi, bu o'quvchiga ma'lum bir rang ma'nosini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Badiiy matndagi ranglar matn diktemasini mavzulashtirishda semantik va stilistik funkSIYA bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnlarda mualliflar o'quvchining his-tuyg'ulariga ta'sir qilib, rang nominativlarini turli xil sezgilarga – ta'mga, teri orqali sezishga va hidga ta'sir qiluvchi boshqa leksemalar bilan birgalikda qo'llaydilar. Badiiy asarda voqelanadigan ko'chimlarning bir turi sifatida rang leksemalarini tadqiqiga tizimli yondashuv bizga turli tizimli tillardagi zamonaviy badiiy matnlarda ranglar qo'llanishi bilan bog'liq xususiyatlarning aniq lingvistik manzarasini tavsiflash imkonini beradi.



XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анিকেева Т.Р. Функционирование прилагательных цветообозначения в английской сленговой лексике // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2018. – № 7 (85). – Ч. 1. – С. 93-97.
2. Дюпина Ю.В. Особенности семантики цветообозначений в структуре художественного текста (на материале поэтических текстов Владимира 146 Высоцкого) // Вестник Челябинского государственного университета, 2009. – № 13 (151). – С. 41-44.
3. Комарова Л.И. Современные подходы к изучению художественного текста // Аналитика культурологии, 2009. –С 102 Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-podhody-k-izucheniuyuhudozhestvennogo-teksta>.
4. Нельзина Ю.А. Качественные прилагательные и глаголы со значением цвета как идеостилевое средство реализации художественного концепта в творчестве М.М. Пришвина // Вестник Удмуртского университета, 2006. – № 5 (2). – С. 109.
5. Janziz A.M. A study of colour words in Shakespeare's works. – Sheffield, University of Sheffield, Department of English Language & Linguistics, 1998 p32.